

**AGROKASTERLAR FAOLIYATI BO‘YICHA ILG‘OR DAVLATLAR  
TAJRIBALARI VA ULARNI AMALIYOTDA QO‘LLASH  
IMKONIYATLARI**

*Toshkent davlat agrar universiteti talabasi  
Salomov Bekzodjon Ilxomjon o‘g‘li*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovation rivojlanishini kuchaytirish yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan agrar tarmoqda klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha mavjud bir qator xorijiy tajribalar keltirilgan. Hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, uning ijobiy jihatlaridan foydalanish va agroklasterlarni rivojlantirish omillari haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** agroklaster, innovatsion, texnologiya, model, klasteri, eksport, raqobatbardosh, instrument, agrosanoat, kooperatsiya, kontsentratsiyalash.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda barcha tarmoqlari kabi, qishloq xo‘jaligida ham chuqur tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda, hozirgi murakkab va qaltis davr dunyo miqyosida agrar sohaning hal qiluvchi o‘rni va ahamiyatini yana bir bor yaqqol ko‘rsatib bermoqda. Mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta’minalash, sohada yangi ish o‘rinlari yaratish, manfaatdorlikni yanada oshirish eng muhim masalaga aylanmoqda. Shu maqsadda bugungi kunda qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq ahlining turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta’minalash masalalari bevosita qishloq xo‘jaligini boshqarishning zamonaviy usuli — klasterlar tizimi bilan bog‘liq.

Agroklasterning iqtisodiy mohiyati, tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish tamoyillari, shart-sharoitlari, bosqichlari va samaradorligini aniqlashga oid nazariy qarashlarni o‘rganish asosida takomillashtirish, uning umumiyligi xususiyatlarini tizimlashtirish asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida klasterlarning o‘rni behisob bo‘lganligini inobatga olgan holda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash va saqlash, tarmoq samaradorligini oshirish, agrosanoat istiqbollari, mevasabzavotchilikda agroklasterlarni tashkil etishda, rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o‘rganish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish maqsadga muvofiq.

Ekspertlar hisob-kitoblariga ko‘ra, bugungi kunda dunyodagi ilg‘or davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizi klaster usuliga o‘tgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2 mingdan ziyod klasterlar mavjud bo‘lib, ularda ishchi kuchining 38 foizi qamrab olingan. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya sanoatida to‘liq klaster usuli tatbiq

qilingan. AQSHda esa mamlakatdagi mavjud korxonalarning yarmidan ziyodi shu tizimda ishlab, ular tomonidan tayyorlanayotgan tovarlar yalpi ichki mahsulotning 60 foizini tashkil qiladi.

Germaniyalik mutaxassislar fikricha, aynan klaster kelajakdagi kuchli, murosasiz raqobat muhitida yutib chiqishning eng oqilona yo‘lidir. Zero, bunday mexanizm har qanday sharoitga moslasha oladi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy muammolarni izchillik bilan samarali yechib beradi, nafaqat muayyan hudud, balki davlatning xalqaro maydondagi raqobatdoshligini mustahkamlaydi, nufuzini oshiradi. Qolaversa, innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning muhim bosqichi hisoblangan ushbu tizim ilm-fan, ta’lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, jahon tajribasida klasterlarning shakllanish maqsadiga ko‘ra oltita modeli mavjud:

- Italiya modeli – kichik firmalarning katta assotsiatsiyalar bilan raqobatbardoshligini oshirish uchun o‘zaro birlashishi;
- Yaponiya modeli – ko‘plab yetkazib beruvchilarning integratsiyalashgan yirik yetakchi firma atrofida shakllanadigan ishlab chiqarish zanjiri. Bu model texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar ishlab chiqirishga qaratilgan;
- Finlyandiya modeli – yuqori texnologiyali innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni ta’lim va tadqiqot bilan integratsiya qilish, korxonalarni milliylashtirish maqsadida biznes va institutlar birlashuvi. Bu model tabiiy resurslari ko‘p bo‘lmagan kichikroq mamlakatlar uchun mos keladi;
- Shimoliy Amerika modeli – korxonalar o‘rtasidagi aniq raqobat bilan tavsiflanib, ishlab chiqarish jarayonida yaqin aloqalarni o‘rnatishni nazarda tutmaydi. Bu model klasterdagi yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat tufayli, shuningdek, ommaviy ishlab chiqarish tufayli bosh kompaniya yakuniy mahsulotning past narxiga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- Hind-Xitoy modeli – bu modelda davlat asosiy rol o‘ynaydi. Asosiy e’tibor chet el investitsiyalariga qaratilgan bo‘lib, ular zamonaviy texnologiyalarni olib kelinishini va davlatning jahon bozorlariga chiqishini ta’minlaydi;
- Sobiq Ittifoq modeli – bozor munosabatlari va raqobat minimallashtirilgan holda, ishlab chiqarish yirik firmalarda to‘planadi. Bu model aholi zichligi past va kam rivojlangan mintaqalarning sanoatida qo‘llaniladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, klasterlar faoliyatini innovatsion qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularni innovatsiya maktablari, institutlar, markazlar va boshqa shu kabi muassasalar bilan uzviy bog‘liqligi ta’milanadi. Bu esa, klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish, shuningdek, mamlakatning jahon bozoriga chiqishida raqobatbardoshligiga olib keladi. Xususan, Finlyandiyada innovatsiyani klasterlar bilan integratsiyasini

ta'minlash maqsadida, bir qancha tadqiqot muassasalari tuzilgan.

Milliy iqtisodiyotimizda klasterlarni rivojlantirishning xorijiy tajribalari va ularning ilg'or yutuqlaridan foydalanish o'ziga xos o'rinni tutadi. Misol uchun, Janubiy Koreyada agroklasterlarni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta'kidlagan holda O'zbekiston sharoitida ham ularni inobatga olish mumkin<sup>1</sup>. Jumladan:

- qishloq xo'jaligiga davlatning amaliy yordami va qo'llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishda yetakchiligi;

- tarixiy va milliy an'analardan foydalanib, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo'nalishlar, masalan agroturizm, mehmonxona xizmati kabilarni shakllantirish;

- hududiy ixtisoslashuv, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanish barqarorligini ta'minlash;

- davlat – universitet – ilmiy-tadqiqot – fermer – qayta ishlash – biznesning birgalikda faoliyat yuritishining o'zaro mutanosibligini ta'minlash mexanizmi;

- olimlar mavqeい va ilmiy-tadqiqot natijalarining samarali ekanligi hamda ularni qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati darajasidagi mavqeining yuqoriligi;

- yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmining shakllanganligi;

- marketing tizimi rivojlanganligi, inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi.

Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarini globalashuvi va chuqurlashuvi agrobiznesni ichki kuchli va zaif tomonlarini ham, uning bozordagi tashqi imkoniyatlari va xavf-xatarlarini ham har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Aynan ana shu imkoniyatlardan biri agrosanoat guruhini klaster modeli bo'yicha tashkil etishdir.

Klaster modeli jahon amaliyotida iqtisodiy guruhni, mintaqani, butun mamlakatni raqobatbardoshliligini ko'tarish instrumenti sifatida keng qo'llaniladi. Klaster modelini asosiy belgilari:

- guruhni tashqi bozordagi ulushini oshirish imkoniyatiga egaligi;

- joylashgan hududda qulay sharoitlar (xomashyo, malakali personal, infrastruktura, o'quv markazlar, ilmiy muassasalar va boshqalar)ni mavjudligi;

- guruhni davlat tomonidan kuchli qo'llash evaziga qatnashuvchilarning guruhda samarali ishtirok etish imkoniyatlarini kengligi va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrosanoat klasterlari faoliyati qonun (normativ-huquqiy hujjat) bilan

---

<sup>1</sup> Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti: Darslik / R.X.Ergashev, Sh.Sh.Fayziyeva, S.N.Xamrayeva; – T.: —Iqtisod-Moliya, 2018.

to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan. Mazkur munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar asosida, jumladan sheriklik shartnomasi, qishloq xo‘jaligi subyektlarining kooperatsiyaga birlashishi orqali amalga oshiriladi. Misol sifatida, Kanadada klaster deganda fermer xo‘jaliklari sheriklik shartnomasi asosida (masalan, Ontariyo provinsiyasida fermerlarning 30 foizi sheriklik shartnomasi asosida faoliyat yuritadi) yoki bir nechta fermerlardan iborat inkorporatsiyasiga yoxud yirik qishloq xo‘jaligi korporatsiyalarga birlashgan holda faoliyati tushuniladi.

AQShni barcha shtatlarida ilg‘or texnologiyalarga ega agrosanoat klasterlari keng tarqalgan. Yirik agroklasterlar Vashington, Oklaxoma, Luiziana shtatlarida, vino ishlab chiqarish Kaliforniya shtatida joylashgan. Yuqori samarada faoliyat ko‘rsatayotgan klasterlarni Silikon vodiysidagi “Axborot texnologiyalar”, Gollivuddagi “Kinofikatsiya” klasterlari misolida ham ko‘rish mumkin. Yevropada (Germaniya, Fransiya, Italiya, Bolgariya, Gretsya, Gollandiya, Angliya, Shvetsariya, Daniya va boshqa davlatlarda) yuqori texnologiyali agroklasterlar keng rivoj topgan.

Fransiyada agrar korxonalar, ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish asosida Yevropa va jahon texnologiya va novatsiya bozorlariga chiqish maqsadida 1986-yili Monpelye shahrida “Agropolis” uyushmasini tuzishdi.

Angliyada 2001-yildan boshlab innovatsion agrosanoat klasteri – Stokbridj texnologik markaz yopiq gruntu dehqonchilik, bog‘dorchilik va sabzavotchilik sohalarida tadqiqotlar va ta’lim dasturlarini o‘tkazishmoqda. Ushbu markaz 70 hektar sug‘oriladigan yerga, 40ta kompyuter orqali boshqariladigan 12 dan 1000 kv.metrgacha hududga teng maydonchalarda joylashgan zamonaviy issiqxonalar hamda yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan labaratoriyalarga ega.

Avstriyada ham klasterlarni ixtisoslashtirishga, agrosanoat va ilmiy-tadqiqot korxonalarining o‘zaro aloqalarini rag‘batlantirishga, innovatsiya dasturlarini boshqarish tartibidagi to‘sislarni kamaytirish hamda raqobatbardosh markazlarni shakllantirishga ko‘proq ahamiyat berishadi.

Daniya qishloq xo‘jaligida chorvachilik dehqonchilikka qaraganda ustuvor ahamiyatga ega, dehqonchilik mahsuloti ko‘proq ozuqaga ishlataladi, chorvachilikda sut yo‘nalishining roli go‘sht sohasiga qaraganda yuqoriroq hisoblanadi, shuning uchun ham sut mahsuloti klasterlari (masalan taniqli “Molochnaya vertical” klasteri) keng tarqalgan.

Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvlari kechar edi. Biroq 2003-yilda hukumat klaster tashabbuslariga jiddiy e’tibor qaratdi. Bu, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashda amalga oshirildi. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoat va ilmiy markazlar kuch-g‘ayratini birlashtirishni ko‘zda tutmoqda.

Chili hukumati keyingi 30 yil ichida vinochilik sohasida integratsiyalash va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan yirik kompaniyalar safini kengaytirish

bilan jahon bozorida o‘z ulushini oshirishga dadil qadam qo‘ydi. Shu maqsadda vinochilik klasteri tuzildi. Uning tarkibiga tarmoq ichidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq uyushmalar, ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va agentliklar, ilmiy-tadqiqot markazlari, tarmoq ommaviy axborot vositalari kiradi. Yevropalik taniqli investorlar mamlakatga o‘z sarmoyalari, yangi texnologiyalari, mahsulotni marketingi va eksportga jo‘natish imkoniyatlari bilan qaytib kelishdi. Natijada vino eksporti bo‘yicha Chili jahon bozorida beshinchi o‘rinni egallab turibdi.

Rossiyada ham iqtisodiyotni barcha sohalarida, shu jumladan, agrosanoat kompleksida, klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha 200 dan ko‘p loyihalar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi 2008-yilda qabul qilgan “Hududiy-sanoat klasterlarini rivojlantirish Konsepsiysi” uch blokdan iborat:

- 1) klasterlarni institutsional taraqqiyotiga yordam berish;
- 2) klasterda qatnashuvchilarni raqobatbardoshliligini ko‘tarish;
- 3) klasterlarni taraqqiyot etishi uchun qulay sharoitlarni yaratish.

Klasterlar Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, AQSh, Daniya, Fransiya, Italiya, Finlandiya, Hindistonda yaxshi rivojlangan. Daniya, Finlandiya, Shvetsiya sanoatini klasterlar to‘la egallagan.

Klaster tuzilmalari Shvetsariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Pokiston, Xitoy va Turkiya davlatlari yengil sanoatida, Germaniyada kimyo va mashinasozlik, Fransiyada oziq-ovqat va kosmetika sanoatlarida muvaffaqiyatli ishlamoqda. Klasterlarni shakllantirish jarayoni Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy, Singapur, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda faollahib bormoqda.

Klasterlarning shakllanishi va rivojlanishida qoida bo‘yicha bir-birini to‘ldiradigan strategiyalardan foydalanilmoqda. Vaqt kelib klasterlarning faoliyati tashqi resurslarni, yirik kapital qo‘yilmalarini va boshqaruva organlarining alohida e’tiborini jalg qilishlariga sabab bo‘ladi. Klasterning markazi sifatida odatda qudratli kompaniyalar chiqadi, bunda ular orasida raqobatchilik munosabatlari saqlanib qolishi mumkin. Klaster shunisi bilan kartel yoki moliyaviy-sanoat guruhlaridan farq qiladi.

Raqobatchilar, xaridorlar va yetkazib beruvchilarni tizimli holda tashkillashtirish ishlab chiqarishning samarali tarzda ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuviga ko‘maklashadi. Bunda klaster ko‘pchilik kichik korxonalarini ish bilan ta’minlay oladi.

Klaster shaklida tashkil etish innovatsiyalarning o‘ziga xos shaklining jami innovatsion mahsulotning yaratilishiga olib keladi, chunki xilma-xil ilmiy va texnologik yangiliklarning o‘z-o‘zidan kontsentratsiyalashuvi yangi bilim va texnologiyalarning tarqalishi va ro‘yobga chiqishning optimal tizimi bilan almashinadi. Klasterning qatnashchilari o‘rtasida barqaror aloqalarning shakllanishi tufayli ixtiolar, yangi ishlanmalar va texnologiyalarning innovatsiyalarga, innovatsiyalarning esa raqobat borasidagi ustunliklarga aylanishi ro‘y beradi.

Shu aniqki, klasterdagi hamkorlik tobora manfaatli bo‘lib boradi, ammo aynan

shu holat klaster qatnashchilariga muayyan xavf-xatarni mustaqil, ya’ni bozorda mustaqil harakat qilish, yangi tovarlar, yangi texnologiyalar va boshqalarni mustaqil o‘zlashtirish qobiliyatining qisman yo‘qotishiga olib keladi.

Shuni inobatga olgan holda so‘nggi o‘n yilliklarda qator mamlakatlarda samarali klaster strategiyalari muhim ahamiyat kasb eta boshladi, ular jahon bozorida o‘zining kuch-qudratini va raqobatbardoshligini isbotlagan ish borasidagi faollik markazlarida qurila boshladi. Hukumatlar o‘zlarining urunishlarini mavjud klasterlarni qo‘llab-quvvatlashda va ilgari o‘zaro aloqa qilmagan kompaniyalarning yangi tarmoqlarini bunyod etishda jamlaydilar. Bunda davlat nafaqat klasterlarning shakllanishiga ko‘maklashadi, balki uning o‘zi ham tarmoqlarning ishtirokchisiga aylanadi.

Klasterli strategiyalarlardan Yevropa mamlakatlarida keng foydalaniadi. Masalan, Germaniyada 1995-yildan boshlab biotexnologik klasterlarni tashkil etish dasturi Bioregio faoliyat ko‘rsatmoqda. Buyuk Britaniyada biotexnologik firmalar joylashtiriladigan asosiy minataqlar sifatida Edinburg, Oksford va Janubi-sharqiy Angliyaning atrofidagi tumanlarni belgilab qo‘ygan. Norvegiyada hukumat “dengiz xo‘jaligi” klasterida firmalar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi. Finlandiyada o‘rmon sanoati klasteri rivojlangan bo‘lib, unga yog‘och va yog‘och mahsulotlarini qog‘oz, mebel, poligrafiya va u bilan bog‘liq uskunalarni ishlab chiqarish korxonalari kiradi. Bilimlarni tarqatishda ushbu klasterga kiruvchi firmalarning o‘zaro uzviy ta’sirlashuvi savdo bo‘yicha asosiy raqiblarning oldida ularning raqobat ustunligini ta’minlaydi. Ekspertlarning baholariga ko‘ra, Finlyandiya ham tadqiqotlar, ham texnologiyalarni kooperatsiyalashuvi bo‘yicha yetakchilik qilmoqda.

Shunday qilib, yondashuvlarning turlicha bo‘lishiga qaramasdan Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligi klasterning u yoki bu strategiyasini ishlab chiqqan. Bunday strategiyani eng ochiq tarzda amalga oshirayotgan mamlakatlar qatoriga Daniya, Niderlandiya, Belgiyaning Flamand hududi, Kvebek (Kanada), Finlyandiya hamda Janubiy Afrikani kiritish mumkin. Fransiya va Italiyada boshqa nom bilan (raqobatbardoshlik qutblari) o‘ziga xos klaster strategiyasi amal qilmoqda.

Hozirgi vaqtida ekspertlar tomonidan klasterlarning 7 ta asosiy tavsiflari ta’riflangan bo‘lib, u yoki bu strategiyani tanlash shu tavsiflarning almashinuvlariga asoslanadi:

–geografik tavsifdagi: iqtisodiy faollikning faqat mahalliy (masalan, Niderlandiyadagi bog‘dorchilik klasteri)dan tortib asl global (aerokosmik) klasterlarga bo‘lgan fazoviy klasterlarni bunyod etish;

–gorizontal: bir qancha tarmoqlar yoki sektorlar yirikroq klasterga kirishlari mumkin (masalan, Niderlandiya iqtisodiyotidagi megaklasterlar tizimi);

–vertikal tavsifli: klasterlarda ishlab chiqarish jarayonlarining yondosh bosqichlari qatnashishi mumkin, bunda tarmoq ishtirokchilaridan aynan kim klaster doirasidagi innovatsiyalarning tashabbuskori va pirovard ishtirokchisi ekanligi

muhimdir;

- material tavsifdagi: ko‘lam samarasi hisobidan tejashni ta’minlaydigan har xil klasterga birlashadilar (masalan, multimediali klaster) va bu yangi kombinatsiyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi;
- texnologik tavsifdagi: aynan bitta texnologiyadan foydalanadigan tarmoqlarning jamlanmasi (masalan, biotexnologik klasterlar);
- fokusli tavsifdagi: bitta markaz, ya’ni korxona, ITI yoki o‘quv muassasasi atrofida to‘plangan firmalardan tashkil topgan klasterlar;
- sifatli tavsifdagi: bu yerda nafaqat firmalarning haqiqatdan ham hamkorlik qilayotganligi, balki uni qay tarzda amalga oshirayotganligi to‘g‘risidagi masala ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan davlatlar amalga oshirayotgan agrar sohadagi islohotlar o‘rganilgan holda mamlakatimizda ham ularni qo‘llash, tajribada sinash ishlari orqali qishloq xo‘jaligi yanada rivojlanishiga olib keladi. Hamda dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida sinalgan, yaxshi samara bergen klaster usulida ish faoliyatini tashkil etish bilan, iqtisodiy, ijtimoiy va ishsizlik muammolari bo‘yicha samarali yechim topa olish imkoniyatini yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sun Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sun Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi "Meva- sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" PQ-4549-sun Qarori.
4. Rustamova I.B. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish iqtisodiyoti: Darslik. T.: “Iqtisod-moliya”, 2022. – 46-51-b.
5. M.Rahmatov, B.Z Zaripov “Klaster-integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘sish. Risola “Zain Nashr” Toshkent-2018
6. Кузнецова Н.В, Н.А. “Кластеризация экономики зарубежный опыт развития и перспективы России “// Экономика науки 2016
7. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: Darslik / R.X.Ergashev, Sh.Sh.Fayziyeva, S.N.Xamrayeva; – T.: —Iqtisod-Moliya, 2018.
8. Porter, M. 1998. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. Available at: <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG>
9. Настин А.А. Сельскохозяйственный кластер Дании. // «Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий», 2011, №4. – С. 45.
10. Galvez-Nogales, Eva. Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Rome, 2010.